



YOSHLAR KAMBAG'ALLIGI MUAMMOSI VA UNI QISQARTIRISH STRATEGIYASI

Ro'ziboyev Jamshid

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti roziboevjamshidbek018@gmail.com

Tilovqobilov Xumoyun

tilovqobilovhumoyun@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tahliliy maqolada O'zbekistonda yoshlar kambag'alligini qisqartirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari tahlil qilinadi. So'nggi yillardagi statistik ma'lumotlar asosida aholi farovonligi, yoshlar uchun ijtimoiy xizmatlar sifati, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar, oziq-ovqat xavfsizligi, ijtimoiy himoya dasturlari, yosh oilalarning iqtisodiy barqarorligi hamda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar kambag'alligini kamaytirish uchun oilaning daromadini oshirish, ta'lim bilan qamrab olish imkoniyatini kengaytirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish eng muhim omillardan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: yoshlar kambag'alligi, ijtimoiy himoya, oilaviy daromad, bolaning rivojlanishi, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash, davlat qo'llovi, bolalar farovonligi, demografik omillar.

Bugungi kunda yoshlar kambag'alligi nafaqat iqtisodiy, balki demografik, ijtimoiy, ma'naviy, psixologik va sog'liqni saqlash bilan bog'liq murakkab, ko'p qirrali muammo sifatida davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Chunki bolalik davrida yuzaga kelgan kambag'allik insonning butun hayoti davomida chuqur iz qoldiradi: bolaning to'laqonli ovqatlanishi, jismoniy va intellektual rivojlanishi, ruhiy barqarorligi, sifatli ta'limga kirish imkoniyati, kelajak kasb tanlovi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Sifatli bolalik davrini ta'minlay olmagan jamiyat kelajakda malakasiz mehnat kuchi, iqtisodiy nochorlik va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolar bilan to'qnashishi aniq. Shu sababli O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda bolalar kambag'alligini qisqartirishni alohida strategik vazifa sifatida belgilab, "bolalar farovonligini ta'minlash — O'zbekiston kelajagini ta'minlash" tamoyilini barcha siyosatning markaziga qo'ydi.

O'zbekiston demografik jihatdan yosh davlat bo'lib, aholining 33 foizidan ortig'ini 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.³⁴ Bu ko'rsatkich O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi eng "yosh" davlatlardan biri sifatida ajratib turadi.³⁵ Shu bois bolalar farovonligi mamlakat iqtisodiy barqarorligi, mehnat bozori salohiyati, inson kapitali sifati va uzoq muddatli rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mavjud statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda mamlakatdagi umumiy kambag'allikning qariyb 40 foizi aynan bolalar ulushiga to'g'ri kelgan³⁶. Bu esa oilalarning daromad yetishmovchiligi, ota-onaning ishsizligi, malaka tanqisligi, ta'lim va sog'liq tizimiga kirish imkoniyatining cheklanganligi, ijtimoiy xizmatlar

³⁴ www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti

³⁵ <https://review.uz/uz/post/ocenka-detskoy-bednosti-v-respublike-uzbekistan-infografika> axborot sayti tahlilida

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni №PD-63 "Bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021 yil.



sifati pastligi kabi omillar bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonning "O'zbekiston–2030" strategiyasida bolalar kambag'alligini keskin qisqartirish, ta'lim va sog'liqni saqlashni butunlay yangi bosqichga olib chiqish, ijtimoiy himoyani raqamlashtirish, iqtisodiy yordamga muhtoj oilalardagi farzandlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish ustuvor maqsad sifatida belgilandi. Ushbu strategiyaga muvofiq, 2026-yilgacha kambag'allikni 50 foizga kamaytirish, 4,5 millionga yaqin iqtisodiy yordamga muhtoj aholining daromadini oshirish, ³⁷bolalar uchun sog'lom ovqatlanish dasturlarini kengaytirish, maktabgacha ta'lim bilan qamrovni 80 foizga yetkazish, kam ta'minlangan oilalarning bolalari uchun bepul repetitorlik, psixologik yordam, ijtimoiy xizmatlar tizimini kuchaytirish rejalashtirilgan. Bu chora-tadbirlar nafaqat bolalar kambag'alligini qisqartiradi, balki ularning ijtimoiy tenglik muhitida o'sishini ta'minlaydi.

Yoshlar kambag'alligiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri — oilaviy daromadning yetarli emasligi. Oilaning iqtisodiy zaifligi ota-onalarning bolaga sifatli ovqat, kiyim-kechak, ta'lim, tibbiy xizmat va qo'shimcha rivojlanish dasturlarini ta'minlash imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli davlat tomonidan oxirgi yillarda ayollar bandligini oshirish, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va grantlar ajratish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, 2020–2024 yillar davomida "Ayollar daftari" orqali 300 mingdan ortiq ayol ishga joylashtirildi, bu o'z navbatida 1 milliondan ziyod bolalarning farovonligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatdi. "Yoshlar daftari" orqali o'qitilgan 200 mingdan ortiq yosh ota-onalarning bandligi ham bolalarning iqtisodiy holatini yaxshiladi. ³⁸

Yoshlar kambag'alligini qisqartirishning eng muhim bo'g'ini ta'lim tizimi hisoblanadi. Sifatli ta'lim bola kelajagini belgilovchi asosiy vosita bo'lib, kelajakda uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi. O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda: maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizdan 70 foizga oshirildi, 800 dan ziyod yangi maktab qurildi, 2000 dan ortiq eski maktab kapital ta'mirlandi. 2024-yilda 400 mingdan ortiq bola bepul ovqatlanish dasturi bilan qamrab olindi, ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilar uchun bepul darsliklar, o'quv qurollari, transport xizmati yo'lga qo'yildi.

Chekka hududlarda yashovchi bolalar uchun bepul maktab avtobuslari joriy etilishi esa ularning ta'limga teng sharoitlarda qatnashish imkoniyatini yaratdi. Bu chora-tadbirlar ta'limdagi tengsizlikni kamaytirib, yoshlar kambag'alligini bartaraf etishda muhim rol o'ynadi.

Bolalar sog'lig'i ham kambag'allikning eng sezilarli ko'rsatkichlaridan biridir. Kam ta'minlangan oilalarda o'sgan bolalarda ozuqa yetishmovchiligi, rivojlanishdan qolish, kamqonlik kabi holatlar ikki baravar ko'p uchrashi aniqlangan.

Shu bois "Sog'lom bola" dasturi doirasida 2022–2024 yillarda 2 milliondan ortiq bolaga bepul tibbiy ko'riklar, vitaminlash dasturlari, profilaktik muolajalar o'tkazildi. 150 dan ortiq bolalar poliklinikasi yangidan qurildi yoki qayta jihozlandi, maktablardagi tibbiy punktlar zamonaviy uskunalar bilan ta'minlandi.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil, 12-yanvar "Bolalar kambag'alligi va oilalarga ijtimoiy yordam tizimini kuchaytirish" mavzusida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi: "Aholining daromadi va kambag'allik darajasi bo'yicha yillik hisobotlar"



Neonatal xizmatlar faollashib, chaqaloqlar o'limi 2017-yildagi 14,5 promilledan 2023-yilda 10,1 promillega tushdi — bu ham bolalar farovonligi uchun juda muhim ko'rsatkichdir.³⁹

Oziq-ovqat xavfsizligi — bolalar kambag'alligini belgilovchi yana bir muhim omil. Kam ta'minlangan oilalarda sifatli ovqatlanish imkoniyatining pastligi bolalarning aqliy va jismoniy rivojiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli 2023-yildan boshlab maktablarda ijtimoiy ovqatlanish dasturi yo'lga qo'yildi, 2024-yilda esa 700 mingdan ortiq bola bepul issiq ovqat bilan qamrab olindi. Oziq-ovqat tanqisligi aniqlangan oilalar "Ijtimoiy reyestr" orqali avtomatik aniqlanib, yordam tizimi raqamlashtirilgan shaklda ularga yetkazilmoqda. Raqamlashtirishning keng joriy etilishi bolalar kambag'alligini qisqartirishda muhim rol o'ynadi. "Ijtimoiy reyestr" orqali davlat yordamiga ehtiyojmand oilalarni aniqlash, moddiy ko'mak miqdorini optimallashtirish, mablag'larning aniq manzilga yetib borishini ta'minlash imkoniyati yaratildi. Natijada 2024-yilda 2,2 million bola ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olingani qayd etilgan. Bu ko'rsatkich ijtimoiy siyosatning bolalar manfaatiga qaratilganligi va tizimli natija berayotganligini tasdiqlaydi.

Yoshlar kambag'alligini kamaytirishning yana bir muhim yo'nalishi — yosh oilalarga ko'mak berishdir. 2020–2024 yillar davomida 450 mingdan ziyod yosh oilaga imtiyozli uy-joy kreditlari, subsidiyalar, farzand parvarishi nafaqalari, tadbirkorlikni boshlash uchun grantlar ajratildi. Yosh oilaning iqtisodiy barqarorligi — uning farzandlarining farovon hayot kechirishi uchun asosdir.

Xulosa qilib aytganda, Yoshlar kambag'alligi nafaqat ijtimoiy muammo, balki mamlakatning kelajak taraqqiyoti uchun strategik xavf hisoblanadi. Bolalarning salomatligi, ta'lim sifati, ijtimoiy tengligi va rivojlanishi — kelajak avlodning intellektual, iqtisodiy va madaniy salohiyatidir. O'zbekistonda bolalar kambag'alligini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar — ijtimoiy yordam tizimini raqamlashtirish, ta'limni modernizatsiya qilish, sog'liqni saqlashni takomillashtirish, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, ayollar bandligini oshirish, iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini saqlash — yaqin yillarda bolalar farovonligini sezilarli ravishda oshirishga xizmat qiladi. Bolalarga qaratilgan har bir investitsiya — mamlakat kelajagiga qaratilgan eng ustuvor sarmoyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni №PD-63 "Yoshlar farovonligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni №PF-5944 "Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining videoselektor yig'ilishlari, 2022–2024 yillar
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, "Aholining daromadi va kambag'allik darajasi bo'yicha yillik hisobotlar", 2020–2024 yillar

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, www.stat.uz



5. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi, Rasmiy hujjati
6. Abdullaev, O. “Bolalar kambag‘alligi va ijtimoiy yordam tizimi”, Toshkent, 2022.
7. Karimov, N. “Bolalar farovonligini oshirish bo‘yicha davlat siyosati”, Toshkent, 2023.
8. Rustamov, S. “Ijtimoiy himoya va bolalar kambag‘alligi: tahliliy hisobot”, Toshkent,
9. Urazbekovna, T. K. (2024). ROLE OF PUBLIC POLICY IN CHANGES IN POPULATION INCOME. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(22), 316-321.
10. Ziyodullaev, N., & Ziyodullaeva, M. (2023). FINANCIAL LITERACY, INTERRELATIONSHIP OF POPULATION INCOME AND EXPENDITURE. *Science and innovation*, 2(B12), 881-887.